

**KORXONALARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA YURIDIK XIZMATNING
VAZIFALARI VA ASOSLARI**

Rahimova Mohinur Maqsud qizi.

Toshkent davlat transport universiteti, Iqtisodiyot fakulteti

Yurisprudensiya 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Imomov Bahridin Panjiyevich

Toshkent davlat transport universiteti, Xalqaro ommaviy huquq kafedrasida katta o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA: *Bu maqolada korxonalarni tashkil etish jarayonida yuridik xizmatning vazifalari va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Yuridik xizmatning ta’sis hujjatlarini ishlab chiqish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini ta’minlash, shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish hamda mehnat va korporativ munosabatlarni tartibga solishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, milliy qonunchilik va taraqqiyot strategiyasi asosida yuridik xizmat institutining korxonalar barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *korxonalar tashkil etish, yuridik xizmat, huquqiy ta’minot, ta’sis hujjatlari, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shartnomaviy huquq, litsenziyalash tizimi, korporativ boshqaruv mexanizmi, mehnat huquqiy tartibga solish.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются функции и правовые основы юридической службы в процессе создания предприятий. Рассматривается роль юридической службы в подготовке учредительных документов, государственной регистрации, правовой экспертизе договоров, а также регулировании трудовых и корпоративных отношений. Также научно обоснована значимость юридической службы в обеспечении стабильности предприятия на основе национального законодательства и стратегии развития.*

Ключевые слова: *создание предприятия, юридическая служба, правовое обеспечение, учредительные документы, государственная регистрация, гражданско-правовые отношения, договорное право, система лицензирования, корпоративное управление, трудовое регулирование*

ABSTRACT: *This article analyzes the functions and legal foundations of the legal service in the process of enterprise establishment. It highlights the role of the legal service in drafting founding documents, ensuring state registration, conducting legal expertise of contracts, and regulating labor and corporate relations. The study also emphasizes the importance of the*

legal service in ensuring enterprise stability based on national legislation and development strategy.

Keywords: *enterprise establishment, legal service, legal regulation, founding documents, state registration, civil law relations, contract law, licensing system, corporate governance, labor regulation.*

Korxonalarni tashkil etish jarayoni har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, chunki aynan yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shakllanishi bozor iqtisodiyotining raqobatbardoshligini, investitsion muhit barqarorligini hamda bandlik darajasini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va korxonalarni tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, korxonani tashkil etish jarayonida yuridik xizmatning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u huquqiy xavfsizlikni ta‘minlash, hujjatlarni qonunchilikka muvofiqlashtirish va kelgusidagi huquqiy nizolarning oldini olish vazifasini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi normativ hujjatlar hamda boshqa bir qator qonun osti hujjatlar korxonalarni tashkil etishning asosiy huquqiy bazasini tashkil etadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar korxonani tashkil etishning shakllari, ta‘sis hujjatlari, ustav kapitali, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi, litsenziyalash talablari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqiy maqomini belgilaydi. Yuridik xizmat aynan shu hujjatlar asosida korxonani tashkil etish jarayonini huquqiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etadi. Korxonani tashkil etish jarayonida yuridik xizmatning asosiy vazifalaridan biri ta‘sis hujjatlarini ishlab chiqish va ularning qonunchilikka muvofiqligini ta‘minlash hisoblanadi. Ta‘sis shartnomasi va ustav korxonaning huquqiy faoliyatini belgilovchi asosiy hujjatlar bo‘lib, ularda korxonaning maqsadi, faoliyat yo‘nalishlari, boshqaruv tizimi, ustav kapitali va ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari aniq ko‘rsatiladi. Yuridik xizmat ushbu hujjatlarni ishlab chiqishda normativ-huquqiy bazaga qat‘iy rioya qilgan holda, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini oluvchi normalarni kiritishi lozim. Shuningdek, yuridik xizmatning muhim vazifalaridan biri korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini huquqiy jihatdan kuzatib borishdir. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmasdan turib faoliyat yuritmaydi. Shu sababli yuridik xizmat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun zarur hujjatlarning to‘liqligini, ularning belgilangan talablarga mosligini va davlat organlariga taqdim etish tartibini nazorat qiladi. Bu jarayonda Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari markazlari bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Korxonani tashkil etishda yuridik xizmat investitsiya shartnomalarini, hamkorlik bitimlarini va boshqa fuqarolik-huquqiy

shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi. Bu esa korxonaning moliyaviy va iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Fuqarolik kodeksining shartnomaviy munosabatlarga oid normalariga muvofiq, har qanday shartnoma tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilashi, nizolarni hal etish tartibini ko‘rsatishi hamda qonunc hilikka zid bo‘lmasligi lozim. Yuridik xizmat ushbu talablarning bajarilishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, yuridik xizmat korxonada tashkil etilayotgan bosqichda litsenziyalanadigan faoliyat turlari mavjud bo‘lsa, tegishli litsenziyalarni olish jarayonini ham huquqiy jihatdan ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasida ayrim faoliyat turlari (masalan, bank faoliyati, sug‘urta, ta’lim, farmatsevtika) faqat davlat litsenziyasi asosida amalga oshiriladi. Yuridik xizmat ushbu talablarni inobatga olib, hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish va vakolatli organlarga taqdim etishni tashkil etadi. Korxonada tashkil etish jarayonida yuridik xizmatning yana bir muhim vazifasi mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishdir. Yangi tashkil etilayotgan korxonada xodimlarini ishga qabul qilish, mehnat shartnomalarini tuzish, ichki mehnat tartibini ishlab chiqish Mehnat kodeksi talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Yuridik xizmat bu jarayonlarda xodimlar va ish beruvchi o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlaydi hamda mehnat nizolarining oldini oladi. Shu bilan birga, yuridik xizmat korxonaning korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishda ham ishtirok etadi. Kuzatuv kengashi, ijro organi, umumiy yig‘ilish vakolatlarini belgilash, qarorlar qabul qilish tartibini ishlab chiqish korxonaning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy mexanizmlardan biridir. Bu jarayonda korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari hamda milliy qonunchilik talablari uyg‘unlashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasining “2030-yilgacha mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitni yaxshilash va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan¹². Mazkur strategiya doirasida yuridik xizmatlarning rolini oshirish, ularning mustaqilligini ta’minlash va korxonalarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa korxonalarni tashkil etish jarayonida yuridik xizmatning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Korxonalarni tashkil etishda yuridik xizmatning huquqiy asoslari faqat milliy qonunchilik bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro huquq normalari, investitsion kelishuvlar va savdo bitimlari bilan ham bog‘liqdir. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishda xalqaro shartnomalar va investitsiya himoyasi qoidalari muhim o‘rin tutadi. Yuridik xizmat ushbu normalarni tahlil qilib, milliy qonunchilik bilan uyg‘unlashtiradi.

Korxonani tashkil etish bosqichida yuridik xizmatning vazifalari korxonaning huquqiy jihatdan to‘g‘ri shakllanishi, davlat ro‘yxatidan muvaffaqiyatli o‘tishi hamda keyingi

¹² “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son

faoliyatida huquqiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratiladi. Ushbu vazifalar qonunchilik talablariga asosanib aniq funksional yo‘nalishlarga bo‘linadi.

1. Ta’ sis hujjatlarini ishlab chiqish va huquqiy ekspertiza qilish. Yuridik xizmat korxonaning ustavi, ta’ sis shartnomasi va boshqa ichki hujjatlarni ishlab chiqadi, ularning O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va korporativ qonunchilik talablariga mosligini tekshiradi. Hujjatlarda korxonada maqsadi, faoliyat turi, ustav kapitali, boshqaruv organlari va ishtirokchilarning huquq-majburiyatlari aniq belgilanishi ta’minlanadi.

2. Korxonada tashkil etish shaklini huquqiy tanlash. Yuridik xizmat korxonada qaysi tashkiliy-huquqiy shaklda (MChJ, AJ, xususiy korxonada va boshqalar) tashkil etilishi maqsadga muvofiqligini huquqiy jihatdan tahlil qiladi va tavsiya beradi. Bu tanlov Fuqarolik kodeksi hamda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun asosida amalga oshiriladi.

3. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini ta’minlash. Yuridik xizmat korxonada Adliya organlari yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali ro‘yxatdan o‘tkazish uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi, ularning to‘liqligi va qonuniyligini tekshiradi hamda ro‘yxatdan o‘tish jarayonini huquqiy jihatdan kuzatib boradi¹³.

4. Ustav kapitali va mulkni huquqiy rasmiylashtirish. Korxonaning ustav kapitalini shakllantirish, ulushlarni taqsimlash va mulkni kiritish jarayonida yuridik xizmat barcha operatsiyalarning qonunchilikka muvofiqligini ta’minlaydi hamda tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi.

5. Shartnomaviy huquqiy bazani yaratish. Yuridik xizmat korxonada tashkil etish jarayonida tuziladigan barcha dastlabki shartnomalarni (investitsiya, ijara, hamkorlik, ta’minot) huquqiy ekspertizadan o‘tkazadi, ularning Fuqarolik kodeksi talablariga mosligini ta’minlaydi¹⁴.

6. Litsenziya va ruxsat etuvchi hujjatlarni olish. Agar korxonada litsenziyalanadigan faoliyat bilan shug‘ullansa, yuridik xizmat tegishli litsenziya, sertifikat va ruxsatnomalarni olish jarayonini tashkil qiladi va hujjatlarni vakolatli organlarga taqdim etadi.

7. Mehnat munosabatlarini huquqiy shakllantirish. Yangi korxonada xodimlarni ishga qabul qilish, mehnat shartnomalarini tuzish, ichki mehnat tartibini ishlab chiqish Mehnat kodeksiga muvofiq amalga oshirilishini yuridik xizmat ta’minlaydi.

8. Korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish. Yuridik xizmat boshqaruv organlari (umumiy yig‘ilish, direktor, kuzatuv kengashi) vakolatlarini belgilaydi, qaror qabul qilish tartibini ishlab chiqadi va korporativ nizomlarni tayyorlaydi.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

9. Huquqiy risklarni oldini olish. Korxonada tashkil etish jarayonida yuridik xizmat mumkin bo‘lgan huquqiy xatarlarni aniqlaydi, ularni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar beradi va oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqadi.

10. Normativ huquqiy monitoring. Yuridik xizmat korxonada tashkil etish bilan bog‘liq barcha qonunlar va normativ hujjatlardagi o‘zgarishlarni doimiy kuzatib boradi va ularni amaliyotga joriy etadi.

Takliflar:

1. Kichik tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishda "Yuridik klinika"lar yoki markazlashtirilgan yuridik xizmat ko‘rsatish tizimidan foydalanish ko‘lamini kengaytirish.

2. Ta‘sis hujjatlarining namunaviy shakllarini xalqaro standartlar (masalan, ISO) asosida yanada takomillashtirish.

3. Korxonada tashkil etishda "legal compliance" (huquqiy muvofiqlik) tizimini joriy etish orqali kelgusidagi sud nizolarining oldini olish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

2. O‘zbekiston Respublikasi “Mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonun.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun.

4. ”Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son

Elektron manba:

1. <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi